

This is not registered version of TotalDocConverter

Vatan har qishining tug'ilgan shahar va maishati kintini shul kishining vatanidir. Har kim tug'ilgan, o'sgan joyi Bni jonidan ortiq suyar. Hatto bu - Vatan hissi - tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z vatanidan - uyuridan ayrilsa, o'z yeridagi kabi rohat-rohat yashamas. Maishati talx bo'lur, har vaqt dilining bir go'shasi o'z vatanining muhabbatini turar.

Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari orasida uning 1913-yilda yozgan va 1917-yilda ikkinchi bor nashr qilingan "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir. Bu asar mazmun tomonidan avtorning boshqa ijtimoiy va pedagogik asarlari bilan uzbek bog'liqidir. B "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari axloqiy va ta'limi asardir. Bu asarda Abdulla Avloniy o'z ijtimoiy va axloqiy-ta'limi qarashlarini bayon etadi. "Turkiy Guliston yoxud axloq" Kaykovusning "Qobusnoma", Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik", Nosir Xusravning "Saodatnoma" Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston", Jomiyning "Bahoriston", Navoiyning "Mahbubul qulub", Ahmad Donishning "O'g'llarga nasihat" kabi asarlari tipidagi o'ziga xos bir asardir. XX asr boshlarida bunday asarni o'zbek tilida birinchi bo'lib Abdulla Avloniy yaratdi va ta'lim-tarbiya ishlarida uni tatbiq etdi. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobi to'g'risida

Biz turkistonliklar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq suydigimiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik issiq cho'llarini, eskimular shimal taraflarini eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerdan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerkarga o'z Vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi.

Bobolarimiz "kishi yurtida sulton bo'lguncha o'z yurtingda cho'pon bo'l", demishlar.

Men ayblik emas, ey Vatanim, tog'larim,

Bevaqt tashlab ketdim oy, bog'larim.

Hijron qilodur meni judolig',

Do'ndi g'ama ro'zu, shabu chog'larim.

Hammaga ma'lumdirki, eng muqaddas diniy yerimiz o'lan Arabistonga bog'larini, havlilarini sotub hijrat qilgan hojilarimizning aksari yana o'z vatanlariga qaytub kelurlar. Buning sababi, ya'ni bularni tortib keturgan quvvat o'z vatanlarining tufroqlarining mehru muhabbatidur.

Vatan, vatan deya jonom tanimdan o'lsa ravon,

Banga na g'am qolur avlodima uyu vatanim.

G'ubora do'nsa g'anom, yo'q vujud asri vahm,

Charoki o'z vatanim xokidur go'ru kafanom,

Tug'ub o'san yerim ushbu Vatan vujudim xok,

O'lursa aslina roje' bo'lurmu man g'amnok.